

**Iqtidorli bolalarni o'qitishga ixtisoslashgan
maktablar faoliyati samaradorligini oshirishning
psixologik xususiyatlari**

Buriyeva Sora Salohitdinovna

Samarqand davlat Arxitektura-qurilish

Universiteti "Xorijiy tillar" kafedrasi

katta o'qituvchisi

+998 99 503 94 78

Mustaqil tadqiqotchi

soraburiyeva@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi kunda iqtidorli bolalarni o'qitishga ixtisoslashgan maktablar faoliyati samaradorligini oshirishning psixologik xususiyatlari bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim, iqtidorli talabalar, maktab faoliyati samaradorligi, psixologik xususiyatlar.*

O'quvchilarning psixologik va fiziologik xususiyatlarini chuqur o'rganish asosida ularni ixtisoslashgan maktablarga jalb etish ta'lim muassasasi faoliyatining samaradorligini oshiruvchi samarali yo'llardan biri bo'lish bilan birga tabaqalashtirilgan ta'limni yo'lga qo'yilishiga imkon beradi. Zero, alohida iqtidorga ega o'quvchilarning tabaqalashtirilgan dasturlar asosida o'qitilishi ularga imkoniyatlari darajasidagi bilimlarni berilishini ta'minlaydi hamda qiziqishlarini yanada rivojlantiradi. Bu esa ularning iqtidorlarini yanada rivojlantiradi.

Iqtidorlilik va uning ma'lum sohalar bo'yicha namoyon bo'lishini samarali rivojlantirish muammosi so'nggi yillarda tabaqalashtirilgan psixofiziologiya yo'nalishi bo'yicha muvaffaqiyatli tadqiq etilgan. Jumladan, B.M.Teplov, B.G.Ananyeva, V.S.Merlin, M.G.Yaroshevskiy, V.V.Umrixin, L.Mesakki, J.Brozes, J.Strelau va I.V.Ravich-Xerbolarning tadqiqotlarida iqtidorlilik darajasini

belgilab beruvchi asab tizimining holati va ichki sabablarini tahlil qilish yo'llari yoritilgan¹.

Ko'plab tadqiqotlarda iqtidorlilik darajasini belgilovchi omillar orasida faollik va o'z-o'zini boshqarish xususiyatining alohida ahamiyatga egaligiga alohida urg'u beriladi. Masalan, N.S.Leytes, E.A.Golubeva, B.R.Qodirov, A.I.Krupnov va V.V.Pechenkovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bu kabi sifatlarning shaxs individualligini namoyon bo'lishi, ma'lum sohalarda yuqori darajada yutuqlarga erishishdagi roli va o'rni masalasi o'rganilgan.

V.V.Pechenkovning fikricha, ommaviy iqtidorlilikning muhim ko'rinishi bo'lgan faollik bir vaqtning o'zida shaxs temperamenti (mijozi)ning belgisi sifatida ham aks etadi. Bu esa asab tizimi, temperament (mijoz) va iqtidor insonning o'ziga xos individualligini belgilovchi yaxlit tuzilma ekanligini tasdiqlaydi.

Shaxs iqtidori, uning tavsifi va holatini quyidagi uch daraja bilan belgilanish maqsadga muvofiqdir:

Asosiy darajalar. Birinchi (psixofiziologik) daraja - asab tizimining o'ziga xosligini tasdiqlovchi tashhisiga tegishli bo'lib, u maxsus (masalan, musiqa sohasiga oid) qobiliyat va iqtidorlilikni belgilab beruvchi analizatorlar ishining tavsifini yoritadi, qobiliyat va iqtidor tarkibga kiruvchi tabiiy unsurlarni o'lchashga imkon beradi.

Ikkinchi (psixologik) daraja - anglash jarayoni (qabul qilish, xotira, nutq, tafakkur va shaxsiy o'ziga xosliklar – temperament (hissiyotga boylik, jonsaraklilik) ning individual xususiyatlarini aniqlaydi.

Uchinchi (ijtimoiy -psixologik) daraja - tabaqaviy tahlil asosida ma'lum faoliyat yo'nalishi bo'yicha uzoq muddatda erishilgan yutuqlarni aniqlaydi, ijtimoiy munosabatlar xarakteri va individual faoliyat uslubining o'ziga xosligini o'rganadi.

Ma'lumki, intellektual va jismoniy kuch mohiyati asab tizimining ishchanligi bilan baholanadi. Juda kuchli asab tizimi tashqi muhit ta'sirini uzoqroq va samaraliroq qabul qiladi. U o'ta chidamli tizim sanaladi. Ko'plab psixologik

¹Способности и склонности: комплексные исследования /Под ред. Э.А.Голубевой. – М.: Педагогика, 1989. – 198 с. Каримов И. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон хаёт - пировард мақсадимиз. - Т.: Ўзбекистон, 2000. - 110 б.

tadqiqotlar V.D.Nebo‘lisin, V.I.Rojdestvenkaya)ning ko‘rsatishicha, kuchli asab tizimiga ega shaxslar turli ko‘rinishdagi mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘ya oladilar. Ayrim tadqiqotlar (E.A.Golubeva)da esa kuchli asab tizimiga ega shaxslarning yodga olib qolish juda qiyin bo‘lgan vaziyatlarda ham muvaffaqiyatga erisha olishlari qayd etib o‘tilgan. Asab tizimining labilligi (beqarorligi, keskin o‘zagruvchanligi) miya faoliyati jarayonining tezligiga bog‘liqdir.

B.G.Ananyev bu uch darajaning inson hayotiy faoliyati bilan o‘zaro muvofiq kelishini o‘rganib, o‘zaro muvofiqlikni quyidagi darajalarga ajratadi:

- 1) anglash (anglash qobiliyati va iqtidoriga mos keluvchi);
- 2) muloqot (o‘zaro aloqalarni tashkil etishga oid qobiliyati va iqtidoriga mos keluvchi);
- 3) mehnat (iqtidorlilikning muhim omili bo‘lgan mehnatsevarlikka mos keluvchi);
- 4) ishchanlik;
- 5) kasbiy yaroqlilik va mehnat faolligi.

Miqdoriy va sifatiy tahlillar anglash iqtidorini ikki tipga: og‘zaki bo‘lmagan (badiiy) va og‘zaki (fikriy) iqtidorlilik tarzda bo‘lishga imkon berdi. Og‘zaki bo‘lmagan iqtidorlilik ko‘p holatlarda kuch, og‘uvchanlik, faollik, shuningdek, o‘ng miya yarim sharlari faoliyati bilan bog‘liq sifatlarni ifoda etsa, og‘zaki iqtidorlilik esa zaiflik, har qanday ta’sirga javob tezkor javob qaytarmaslik (inertlik – beg‘amlilik), sustlik hamda chap miya yarim sharlari faoliyati bilan bog‘liq sifatlarni namoyon etadi.

Iqtidorli o‘quvchilarning kuchli xotira ega bo‘lishi ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ixtisoslashgan maktablarga o‘quvchilarni qabul qilish va o‘qitish davrida ularning xotira kuchi qanday ekanligini aniqlashga e’tibor qaratish zarur.

Asab tizimining labilligi (zarur o‘rinlarda ta’sirlanish va tormozlanishning o‘z vaqtida ro‘y berishi), ta’sir tezligi u yoki bu sohada alohida iqtidorga ega bo‘lishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Labillik, shuningdek, o‘z-o‘zini boshqarish, shuningdek, fikriy faoliyat tezligining bir maromda bo‘lishidan chekinishda ham

yetakchi element hisoblanadi. Binobarin, iqtidorlik negizida keskin o'zgarishlar (goho sokinlik, goho jo'shqinlik)ni sodir etishga moyillik mavjud bo'ladi.

O'quvchilarda musiqaga bo'lgan iqtidorning rivojlanishida labillik, asab tizimining tezkorlik tavsifi yanada muhim o'rin tutadi. Ya'ni, musiqiy ohang ritmi, tempi (sur'ati) o'zgarishlarini tezda ilg'ab olish, ovoz (yoki cholg'uda kuy ijro etishda qo'l harakati)ni keskin o'zgartira olish asarning muvaffaqiyatli ijro etilishinigina ta'minlab qolmay, shu bilan birga ijrochining mahorati, iqtidori darajasini ham belgilab beradi. Shuningdek, faoliyatni boshqarishning ixtiyoriy va ixtiyorsizlik jihatlari ham kam bo'lmagan ahamiyatga ega. Ayrim tadqiqotlar (E.A.Golubeva, Ye.P.Guseva, Yu.A.Sagarelli, A.I.Medyannikov)ning ko'rsatishicha, asab tizimining labilligi yuqori bo'lgan shaxsgina juda kuchli musiqani eshita olish qobiliyati va musiqaviy xotiraga ega bo'lishini tasdiqlaydi. Ixtiyoriy yodda saqlashda yirik hajmli axborotlarni qabul qilish ularni qayta ishlash, kodlashtirish, qayta o'zlashtirishni taqozo etadi, shu sababli bu jarayonda asab tizimining inertligi o'ziga xos o'rin tutadi. Ixtiyorsiz yodda saqlashda esa asab tizimining labilligi muhim ahamiyatga ega. Musiqali materialni saqlab qolishda ham axborotlarni qabul qilish ularni kodlashtirish asosida kechadi, shu bois musiqaviy iste'dodga ega bo'lishda asab tizimining labilligi muhim.

Demak, iqtidorli bolalarni tanlash va ularni ixtisoslashgan ta'lim muassasalariga jalb etishda ularning quyidagi umumiy psixologik xususiyatlarga ega ekanliklarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir:

1. Shaxs individualligining yorqin ko'zga tashlanishi.
2. Shaxsning faolligi va o'z-o'zini boshqara olishi.
3. Asab tizimining kuchli bo'lishi, jiddiylik va sovuqqonlik (sport, ilmiy, texnik va til yo'nalishlarida).
4. Asab tizimining nisbatan kuchsiz bo'lishi va o'ta ta'sirchanlik (musiq, tasviriy san'at, amaliy san'at va xoreografiya yo'nalishlarida)
5. Asab tizimining labilligi va og'uvchanligi.
6. Yuqori darajada xotira kuchiga egallik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Способности и склонности: комплексные исследования /Под ред. Э.А.Голубевой. – М.: Педагогика, 1989. – 198 с.
2. Каримов И. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон хаёт - пировард мақсадимиз. - Т.: Ўзбекистон, 2000. - 110 б..
3. Baratov Sh. Kichik yoshdagi o‘quvchilar faoliyatini baholash. – Т.: О‘qituvchi, 1992.
4. Odaryonnye deti (Per. s ang.). – М.: Progress, 1991. – 381 с.
5. Mahkamov U. O‘quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. - Т.: Fan, 1996.
6. Маттиев И. Б. (2016). Некоторые направления государственной политики здоровьесбережения как педагогический фактор формирования здорового поколения. Бюллетень науки и практики, (10 (11)), 358-363.
7. Mattiev I. B. THE IMPORTANCE OF DISTANCE EDUCATION IN INDEPENDENT EDUCATION //Conference Zone. – 2022.
8. Маттиев И. Б. (2016). Некоторые направления государственной политики здоровьесбережения как педагогический фактор формирования здорового поколения. Бюллетень науки и практики, (10 (11)), 358-363.
9. Маттьев И. Б. (2022). Социально-педагогическая необходимость развития здравоохранения для студентов. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(4), 300-304.
10. Маттиев И. Б. (2019). САЛОМАТЛИКНИ АСРАШГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ТЕХНОЛОГИЯЛАР: ДОЛЗАРБЛИК САБАБЛАРИ ВА ОМИЛЛАРИ. Интернаука, (14-2), 56-58.